

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI KITOBOXONLIK ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI.

Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna

Namangan davlat universiteti, Boshlang’ich ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

Gmail: turgunoy91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini kitobxonlik orqali rivojlantirish yo’llari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: kompetensiya, kommunikativ, kitob o‘qish, kitobxonlik, mutolaa, barkamol shaxs, kutubxona, boshlang’ich sinf, o’quvchilar.

ПУТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ЧТЕНИЯ.

Аннотация: В данной статье описаны пути развития коммуникативной компетентности младших школьников посредством чтения.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативность, чтение, читаемость, чтение, компетентная личность, библиотека, начальная школа, ученики.

WAYS TO DEVELOP COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH READING

Annotation: This article describes ways to develop communicative competence of elementary students through reading.

Keywords: competence, communicative, reading, reading, reading, reading, reading, harmonious personality, library, primary school, students.

KIRISH

Jamiyatimizda ma’naviy-axloqiy muhit yuksalishi, o‘zimizga xos milliy qadriyatlar va an’analar, inson huquqlari va erki yuksalishi, yoshlarni ilmli va kuchli qilib voyaga yetkazish barchamizni bugungi kunda oldimizda turgan eng muhum vazifalarimizdan biri deya olamiz. Chunki ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Biz barkamollikka erishishimiz uchun eng asosiy qurol bu albatta kitobdir. Buni mamlakatimiz rahbari ham alohida inobatga olganlar. Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatning chinakam a’zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonlaridan kitobxonlikni targ’ib etish va chop etishga doir qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g’risida”gi qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-

2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturi to'g'risida"gi Qarorlari buning yaqqol dalili deya olamiz. Mazkur qarorlar kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'targanligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kitoblar insonni har tomonlama taraqqiy etishiga yaqindan yordam beradi. Insonni taqqiy etishida kommunikativ kompetensiyaning o'rni benihoya katta deya olamiz. Dastlab, kompetensiya so'ziga to'xtalamiz. Kompetensiya so'zining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z inglizcha "competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musbaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi.

Ilmiy pedagogik va psixologik manbalarda keltirilishicha, kopetensiya, kopetentlilik o'ta murakkab, juda ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasи jihatidan turlitumandir.

Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

"Kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari;
- amaliy faoliyatga tayyoragarlik o'chovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amalyotga tadbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotSIONAL iroda kuchi.

Yuqorida kompetensiya so'zini tavsiflash jarayonida ham keltirilgan har bir tavsif kitobxonlik bilan uzviy bo'g'langan. Kommunikativ so'zi aslida lotincha so'z bo'lib texnika-texnologiyalarga tegishli atama hisoblanadi. Biz uni ijtimoiy nuqtai nazardan yondashsak guruh yoki tashkilot ichidagi, butun jamoa ichidagi alohida shaxslar o'rtasida axborot almashish jarayonini o'z ichiga oladi.

Psixologik kitoblarda esa kommunikativ qobilyat - bu kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobilyatdir.[1]

Shuning uchun ham bizning ona yurtimizda ilm olish, kitob yozish, kitob o'qish, ijod qilish har qachon ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatib turuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Yunon faylasuflaridan tortib, sharq va g'arb olimlarigacha barcha-barchasining ming yillar davomida boqiy yashashlari, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqot-u kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlodlar tomonidan chuqur o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy asarlariga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

Ma'rifiy qarashlari va g'oyalari

- Bilimlarni izchil va mantiqiy bayon etish;
- Ko'rgazmali va savol-javob asosida bilim berish;
- Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bilimlarni sinash metodlaridan foydalanishni maslahat berdi.

Uning fikriga ko'ra: "Sezgi" orqali bilish –bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bayon orqali bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini namoyon etadi.

Kitob umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur [2]

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz yozganlaridek, "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Kitob – umr yo'llarini yorituvchi nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai hamda u har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st deya olamiz. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobdek kuchli qudratga ega vosita yo'q deb o'layman. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgani tarixdan ma'lum.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta'lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minot" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda kitobxonlik, mutolaa madanyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

"Kitob", "kitobxonlik", "kutubxona" so'zlarining o'zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, ya`ni inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi. Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo'lish bilan belgilanadi.

"Mutolaa" so'zi arabcha o'qish degan ma`noni anglatadi, bugungi kunda esa u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqdi. Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlardan-avlodlarga yetkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi. Har bir kitobxon o'z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o'qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo'ladi deya olamiz. Buning uchun ota-ona, bog`cha, mакtab hamkorligida bolaning qiziqishlari to'laqonli o'rganilishi va albatta tavsiyalar berish kerak. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida, ularning ma'naviyatli madaniyatli bo'lib kamol topishida barcha birdek mas`ul hisoblanadi. Kitob o'qishni odat qilmagan oila – ma'naviy qashshoq oiladir deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki bolaning yon-atrofidagilar va albatta kutubxona hodimlari ham o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda kitob to'g'ri kitob tanlab berishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirish jarayonini

birinchi galda yo’lga qo‘yuvchi shaxslar bu ularning o‘qituvchilaridir. Bolalar o‘qishi pedagogikasida yoshiga qarab o‘qishning o‘sishi quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- bolalalik 6-9 yosh;
- bolalikdan o‘spirinlikka o‘tish 10-II yosh;
- o‘spirinlik 12-13yosh;
- o‘spirinlikdan o‘smirlikka o‘tish 14 yosh hisoblanadi.

Bu toifadagilarning yosh chegarasi harakatchan bo‘ladi, ya’ni kitobxonning ijtimoiy- psixologik sharoitining shakllanishiga ko‘ra 10 yoshli bolaning o‘ziga xos tipologik xususiyatiga qarab o‘spirin kitobxon toifasiga qo‘shish, 14 yoshlilarni esa o‘spirinlikka o‘tayotgan kitobxon toifasi tabiatidagilar qatoriga qo‘shish mumkin bo‘ladi. O‘qish –bolaning ma’naviy hayotiga mustaxkam kirib borishi uchun oldindan ta’sirchan-estetik tayyorgarlik ko‘rish zarur.[3]

Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxonlikka o‘rgatishni maqsad qilib olgan bo‘lsak yuqoridagi davrlardan bolalik 6-9 yosh va bolalikdan o‘spirinlikka o‘tish 10-II yoshli o‘quvchilarni qamrab olish imkoniyatimiz mavjud. Bu davrda o‘quvchilar juda qiziqqon va harakatchan bo‘lib o‘qituvchi to‘g’ri yo‘nalish bera olsa juda katta marralarga erishish imkoniyati mavjud bo‘ldi. Shu bilan birga 6-II yoshli o‘quvchilarni o‘qigan ma’lumotlarini yodda saqlb qolish jarayonlari boshqalarga qaraganda anche yuqori deya olamiz. Kitobxon o‘quvchida kommunikativ kompetensiya yaxshi rivojlanadi. Sababi u kitob o‘qish davomida turli vaziyatlarda qanday harakat qilish, qanday so‘zlash kerakligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda “O‘qish savodxonligi” va “Ona tili” darslari orqali o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni nazarda tutsak, kitobxonlikka o‘rgatishni eng samarali yo‘l deya olamiz.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usuli sifatida o‘quvchilarni kitobxonlikka o‘rgatishni ko‘rsata olamiz. Kitob o‘qish barchaga ijobiy ta’sir etadi. Biz o‘quvchilarni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishimiz uchun eng katta e’tiborni kitoblarga qaratishimiz muhim. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf darsliklari yangilandi va har tomonlama takomillashdi deya olamiz. Endigi vazifa o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, ular o‘quvchilar yoshi va induvidial xususiyatlarini inobatga olgan holda kitoblarni tavsija etishlari zarurdir. Bu jarayonni yo‘lga qo‘yib olinsa ya’ni o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqishlarini orttirsak oldimizga qo‘yilgan vazifani bir qismini ado etgan bo‘lamiz. Bu orqali tizimli ishlarni tashkil etib olsak, kelgusida yurtimizda kutilayotgan “Renessans”ni amalga oshishi uchun oz bo‘lsada o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR:

1. <https://nrm.uz/1-2-bet>.
2. <https://yuz.uz/uz/news/kitobxonlik--buyuk-kelajak-kafolati>
3. <https://tiiame.uz/oz/content/kitobxonlik-kelajak-kafolati>
4. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.

6. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romani Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2013.
 - “O’zbek xalq ertaklari” Toshkent: “Qaldirg’och” nashriyoti, 2012.
 7. Alisher Navoiy “Xamsa” Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2015.
 8. Mahmudxo’ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999.
 9. Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2019.
 10. Islom Karimov “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’llida xizmat qilish – eng olyi saodatdir” Toshkent: “O’zbekiston”, 2015.
11. Turg‘unoy Jo’rayeva “BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.” EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 A peer reviewed journal 206-210 www.in-academy.uz. Received: 26th February 2023 Accepted: 06th March 2023

Online: 08th March 2023 DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7710412>

12. Turg‘unoy Jo’rayeva EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 A peer reviewed journal 67-76 www.in-academy.uz. Received: 02nd March 2023 Accepted: 09th March 2023 Online: 10th March 2023 DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710412>